

## DINIY MATNLARDA O'XSHATISHLARNING LEKSIK XUSUSIYATI

Murodqulova Iroda Sharofiddinovna

TerDu Filologiya fakulteti 4- bosqich talabasi

Omonturdiyeva Shoira

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236110>

**Annotatsiya.** Qadim tarixdan bizga ayonki har bir xalqning o'z tarixi madaniyati tili dini mavjud, va insoniyat bulardan bugungi kunga qadar foydalanib kelmoqda. Ushbu maqolada diniy matanlarimizda uchraydigan o'xshatishlarning leksik xususiyatlari va bu o'xshatishga asos bo'la oladigan vositalar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Abdussalom Ashriy Muhammad Abdulg'ani Hasanning "Xadicha" bintu xuvaylid raziyallohu anho, Abdulfattoh Abu G'uddaning "Ulamolar nazdida vaqtning qadri" asarlaridan olingan bo'lib o'xshatishlarning sturkturasi haqida mulohazalar bayon etilgan .

**Kalit so'zlar:** O'xshatishlar, bog'lovchi vositalar, metafra, etalon, tashbih, mushabbih, mushabbihunbih, odati tashbih, vaji tashbih.

## LEXICAL CHARACTERISTICS OF SIMILES IN RELIGIOUS TEXTS

**Abstract.** It is clear to us from ancient history that each nation has its own history, culture, language, religion, and humanity has been using them to this day. This article discusses the lexical features of similes found in our religious texts and the tools that can be the basis of this simile. As an object of research, comments on the structure of similes were taken from the works of Abdussalam Ashri Muhammad Abdulghani Hasan, "Khadichah bintu Khuwaylid raziyallahu anho" and "The value of time in the eyes of scholars" by Abdulfattah Abu Gudda.

**Key words:** Similes, connecting devices, metaphor, standard, tashbih, mushabbih, mushabbihunbih, custom tashbih, waji tashbih.

## ЛЕКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СРАВНЕНИЙ В РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТАХ

**Аннотация.** Из древней истории нам ясно, что каждый народ имеет свою историю, культуру, язык, религию, и человечество использует их до сих пор. В данной статье рассматриваются лексические особенности сравнений, встречающихся в наших религиозных текстах, и средства, которые могут быть положены в основу этого сравнения. В качестве объекта исследования были взяты комментарии по структуре сравнений из работ Абдуссалама Ашри Мухаммада Абдулгани Хасана, «Хадича бинту Хувайлид разияллаху анхо» и «Ценность времени в глазах ученых» Абдулфаттаха Абу Гудды.

**Ключевые слова:** Сравнения, соединительные средства, метафора, стандарт, таибих, мушаббих, мушаббихунбих, обычай таибих, ваджи таибих.

Bilamizki o'zbek xalqi bir necha asrlardan buyon islom diniga e'tiqod qilib, o'z hayotlarini shu dinga tayangan holda davom ettirib kelmoqda. Barcha xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalqida ham diniy matnlar xalqlarning ijtimoiy turmush tarzi, tarixini e'tiqodini bilish uchun muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qarasaq diniy matnlarni o'rganishga ehtiyoj sezila boshlagan va diniy matnlarni funksional – stilistik aspektda o'rganilgan. Diniy matnlarni stilistik aspektda o'rganishni birinchi bo'lib rus tilshunoslari yetakchilik qilgan. Xususan M.H. Кожина “Rus tili stilistikasi” H.B. Мигковскаяning “Til va din” nomli kitoblari shu mavzularga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek professor S. Karimovning “O'zbek tilining badiiy uslub” nomli kitobida ham Baskakovning musulmon olamida bo'lgan tillarda ya'ni turkiy tillarda diniy uslubning mavjudligi haqida fikrlar yuritilgan. Ammo bir necha yillar bu ish ustida izlanishlar olib borilmadi, lekin mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zining diniy- ma'naviy merosini o'rganish baxtiga muvassar bo'ldi. O'zbek tilshunosligida o'zbekcha diniy matnalarning til xususiyatlarini stilistikasini funksional stilistik aspektda o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Ta'kidlash joizki diniy uslub bo'yicha Shoira Omonturdievaning “O'zbek diniy matnlarning funksional - stilistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi, Ismoilova Nodirabegimning “Qur'oni Karim”dagi o'xshatishlarning teolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiya va Xudoyberganova Durdonaning “O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” dissertatsiyalari diniy matnlarga oid nazariy va amaliy kuzatishlar olib borishgan.

**O'xshatishlar-** bu ikki narsa yoki voqea- hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq ifodalashdir. Tilshunos olim H. Mahmudov insonning dunyoni bilishida o'xshatish- qiyoslash benihoya katta o'rin tutishini e'tirof etib shunday yozgan: “ikki va undan ortiq predmet yoki tushunchaning o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki tilda ham o'z aksini topadi”.<sup>1</sup>

O'xshatishlarning badiiy vazifasi nutqning obrazlilikini oshirish, shu orqali kishiga estetik ta'sir etishdir. M. Cheremisina<sup>2</sup> tasnificha o'xshatishlar quyidagilardan tashkil topgan:

<sup>1</sup> Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy nigoh / Til tilsimi tadqiqi. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. - b, 166-175.

<sup>2</sup> М. Черемисина. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск “Наука”, 1976, б. 3-6.

1) O'xshatish subyektini

2) O'xshatish etaloni

3) O'xshatish asosi

4) O'xshatishning shakili ko'rsatkichlari

Axir, nobud bo'lgan norasidalar orasida Xadicha singari ma'sum chechaklar qancha!? Ha, rayhon, ko'nglimizning quvonchidir..." Xadicha bintu xuvaylid (Xandon guli 5-bet). Bu o'xshatishimizda Xadicha onamizni chechaklarga oddiy chechak emas ma'sum chechakka o'xshatish orqali dardi bor ayol, ma'sumlik bilan ifodalanayapti. Bu yerda o'xshatish etalonimiz ot so'z turkumi o'z qatlamga ega bo'lib gap tarkibida ega vazifasida kelyapti. Tashqi tomondan qaraydigan bo'lsa Xadicha raziallohu anhuning chechak bilan hech qanday aloqasi yo'q ammo Xadicha onamizdagi samimiyat va chiroylilik belgisini qiyoslash orqali o'xshatish amalga oshirilayapti. O'xshatish asosida badiiy obraz bo'lganligi uchun ham uning ta'sir kuchi yuqori baholangan.

Tilimizda o'xshatishlarning turlari bo'lgani kabi adabiyotshunosligimizda ham o'xshatish turlari mavjud bo'lib, ular yuzaga kelishiga ko'ra: inkor, kinoya, satirik, to'liq, to'liqsiz, vositasiz, soda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket o'xshatishlarga bo'linadi. Har birining o'z vazifasi amalga oshiradigan funksiyalari mavjuddir. "Mumtoz adabiyotda ham o'xshatish (tashbih) komponentlari to'rt qismdan tarkib topishi va tashbih bo'lsa "tashbihi mufassil" deyilishi aytib o'tilgan Anvar Hojiahmedovning<sup>3</sup> "she'r san'atlari" asarida."

1) *Mushabbih* (o'xshatilgan narsa)

2) *Mushabbihun bih* (o'xshatish etaloni)

3) *Odati* tashbeh (o'xshatish vositalari)

4) *Vaji* tashbeh (o'xshatish sababi)

Buni esa quyidagi g'azal bilan ham tahlil qilib ko'rishimiz mumkin.

*Sarvdek qaddi firoqida fig'onimdur baland,*

*Gul kabi ruxsori hajrida yoshimdur lolagun. (Zahiriddin Muhammad Bobur)*

Ushbu parcha Bobur g'azalidan olingan bo'lib, misrada o'xshatishning to'rt unsuri ham qatnashgan bo'lib ularni quyidagicha sharhlaymiz. *O'xshagan narsa -qad, ruxsor, o'xshatilgan narsa sarv, gul, o'xshatish sababi -baland lolarang, o'xshatish vositasi esa -dek, kabi.*

Dilmurod Quronov ham o'xshatishni metafralardan farqlovchi xususiyati bo'yicha shunday yozgan: "Ma'no ko'chishning o'xshatish asosida turi bo'lmish metafralardan farqli

o'laroq o'xshatilayotgan narsa ham o'xshayotgan narsa ham matnda so'z bilan ifoda etiladi. Aksariyat hollarda o'xshatish turli grammatik vositalar :- dek,-day,-qo'shimchalari yoki go'yo , kabi ,xuddi, misli, misoli , yanglig', bamisli kabi ko'makchilar vositasida amalga oshadi".<sup>4</sup>

M.Mukarramov ta'rifi bilan aytganda o'xshatishlarni ikkita katta guruhga ajratadi va ularga quyidagicha ta'rif beradi." Birinchi guruh o'xshatishlar ,- sezgilarga asoslanadi va real bo'lgan predmet ,hodisalar qiyoslanadi.Bunday o'xshatishlarni shartli ravishda **konkret** o'xshatishlar deb nomladik.Ikkinchi guruh o'xshatishlar tasavvurlar asosida yuzaga chiqadi. Bunday o'xshatishlarni shartli ravishda **abstrakt** o'xshatishlar deb nomladik"- deb ta'kidlagan.<sup>5</sup> M.Mukarramov konkret o'xshatishlarga - **day, -dek, kabi,singari**, elementlari ko'p qo'llanilishini aytib o'tgan.

Konkret o'xshatishlarga doir doir misollar :

#### **Xuddi ...dek formal ko'rsatkichi yordamida hosil qilingan o'xshatishlar :**

Xadicha **xuddi** madrasa **talabasidek** saboq olar biroq bu saboqlar o'ta jiddiy fan – hayot darsligidan ediki, sinov va imtihonlari ham o'ziga yarasha ma'sulyatli, murakkab edi. Xadicha bintu xuvaylid (to'y hayajoni 15)

"Biz senga **xuddi** Nuh va undan keying nabiylarga vahiy yuborganimiz**dek** ,vahiy yubordik"(Niso surasi 163-oyat)8 bet(iymon)

Ayol kishini mol- mulk tariqasida oldi- sotti qilganlarga,meros sifatida taqsimga soladiganlar ham oz emas edi.Islom esa birinchi bo'lib ayol kishi ham **xuddi** erkak **kishidek** to'laqonli insonligini e'lon qildi.(Niso surasi 1 oyat tavsiri)67 bet(iymon)

"Qo'ng'iroq chalingandek ovoz bilan kelardi.**Xuddi** mana shu xili Nabiiy sallahu alayhi vasallam uchun qiyin kechar edi.(167- bet)(iymon)

#### **Abstarkt o'xshatishlar.**

Birgina chiroqning xira nuridan boshqa hech narsa ko'rinmasdi.**Go'yoki** bitta yulduz yerga tushgan edi. (Iymon 63)

#### **Dek...ko'rsatkichi yordamida:**

Uzoq ayriliqdan so'ng Xadichaning hovlisida yana hayot jonlandi.**Go'yo** qorong'u zulmatdan keyin yorug'lik **porlagandek** bo'ldi.(Qaytish va qasd 105)

#### **Xuddi.. dek ko'rsatkichi yordamida:**

<sup>4</sup> D.Quronov ,ZMamajonov,M.Sheraliyeva Adabiyotshunoslik lug'ati .T.,2010.-B. 375

<sup>5</sup>M.Mukarramov.O'zbek tilida o'xshatish [matn]. –Toshkent:O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1976.-b.25

Elliyen ahlini **xuddi** ufqni nur sohib turgandek yulduzni **ko'rgandek** ko'rib turgan ekanlar.

Ularning **ko'zlarida yomonlik, ovozlari**da **dushmanlik** **zohir edi**. Rasululloh uylariga borib, sukutga toldilar. (Ulamolar nazdida vaqtning qadri)173

Muvaffaqiyat qozonish faqatgina biror makonga ,biror sharoitga bog'lab qo'yilmagan. Lekin kun **u xuddi shunday munosib lahzaga** bog'liq. Oldingilar xom fikrdan ham, keyin kelgan fikrdan ham ehtiyot bo'lganlar. (Ulamolar nazdida vaqtning qadri 187)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak diniy matnlardagi o'xshatishlar bizga g'ayb dunyosini tasavvur qilishimizga uni anglab yetishimizga ko'maklashadigan vosita hisoblanadi. Har bir insonning o'z yo'li bo'lgani kabi har bir yozuvchining ham o'z uslubi bo'ladi. Yuqorida sanab o'tgan yozuvchilarimiz ham o'z asarlarini o'z uslublari yordagida turli xil o'xshatish komponentlaridan foydalanishgan. Ushbu asarlarda ham o'xshatishlar xilma-xil bo'lib ko'proq abstarkt o'xshatishlardan foydalanilgan.

## REFERENCES

1. M. Mukarramov. O'zbek tilida o'xshatish [matn]. –Toshkent: O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1976.-86 b
2. Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy nigoh /Til tilsimi tadqiqi.-Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.-b, 166-175.
3. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva Adabiyotshunoslik lug'ati .T., 2010.-B. 375
4. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.-T.: "Sharq", 1998.-b. 42
5. М. Черемисина. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск "Наука", 1976, 6.3-6.